Maxmudova.D.B.
p.f.f.d(PhD)dotsent ISFTI v.b.prrofessori.

ESHITISHDA NUQSONI MAVJUD BOLALARDA BOG‘LANGAN NUTQNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zaif eshituvchi bolalarda o‘qish malakalarini o‘zlashtirishda kuzatiladigan qiyinchiliklar haqida so‘z boradi. Bolalarni to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish metodikasi hamda tez, ifodali o‘qishga o‘rgatish yo‘llari, usullari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. To‘laqonli o‘qish malakalarini shakllantirish uchun bolani ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qishga o‘rgatish talab etiladi. Maxsus maktabda ushbu ta’limiy ishlar tarbiyaviy va korreksion vazifalarni bajarish bilan birgalikda amalga oshiriladi.*

Kalit so‘zlar: *zaif eshituvchi bolalarda o‘qish malakasi, to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish metodikasi, tez va ifodali o‘qishga o‘rgatish.*

Bolaning og‘zaki nutqi qanchalik yaxshi bo‘lsa, qanchalik u yaxshi gapirsa, ta’lim jarayonida shunchalik to‘g‘ri, xatosiz o‘qiydi va yozadi. O‘qishga o‘rgatish ishlari savod o‘rgatishda boshlangan bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish, ko‘rish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, fazoviy idrokini o‘stirish, barcha psixik jarayonlar: diqqat, tafakkur, idrok, xotira, nutq, his-tuyg‘ular, hissiyot, analiz-sintez qilish malakalarini tarkib toptirishga qaratiladigan ishlar davom ettiriladi. O‘qituvchi nutq o‘stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, ritmika, qo‘l mehnati, tasviriy san’at va boshqa o‘quv reja bo‘yicha o‘tkaziladigan darslarda yuqorida qayd etilgan yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish ishlarini izchillik bilan amalga oshiradi. Har bir dars o‘zining samaradorligi va ijobiy natijalari bilan bir-biridan farq qiladi.

O‘qish va yozuv buzilishlarining mexanizmi ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshashdir. Shuning uchun ularning oldini olish, bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlari metodikasi ham o‘xshash.

Logopediya fanida o‘qish va yozishda kuzatiladigan nuqsonlar disgrafiya, agrafiya va disleksiya, aleksiya atamalari bilan nomlanadi. Maxsus maktab bolalari orasida disgrafiya va disleksiya deyarli barcha bolalarda kuzatiladi. Olimlardan M.Xvatsev, R.Levina. F.Rau, R.Lalayeva, K.Sadovnikova. L.Yefimenkova, R.Boskis va boshqalar yozma nutqdagi kamchiliklarni og‘zaki nutqning yaxshi rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan nuqson deb bilib, artikulyator-akustik, optic, motor disleksiya va disgrafiyaning oldini olish va bartaraf etishda eshitish diqqati, fonematik idrokni: ko‘rish analizatorining faoliyatini va mayda qo‘l muskullari motorikasini rivojllantirishni tavsiya etganlar. Tovushlarni bir-biridan farqlash va mustahkamlash bo‘yicha olib boriladigan ishlar turli analizatorlar (nutqni harakatga keltiruvchi, eshituv, ko‘ruv)ga tayangan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shu ishlar maxsus maktabning savod o‘rgatish darslarida, o‘qish va yozuv darslarida boshlang‘ich va yuqori sinflarda ham olib boriladi.

Tahlil-tarkib usuli o‘qish darsining har bir bosqichida ishlatiladi. Fonetik, morfologik,

sintaktik tahlildan so‘ng o‘qish, matnni tahlil etish, so‘zlarni bir-biridan ajratish, narsa nomi, harakati, belgisini bildiradigan so‘zlami guruhlarga jamlash, gap tuzish va shu kabi dastur bo‘yicha olib boriladigan ishlar bolalarning nafaqat analiz-sintez qilish malakalarini, balki kuzatuvchanligi, diqqati, tafakkuri, idroki va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishini ta’minlaydi, bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini korreksiyalash imkonini beradi.

Nutq va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixik jarayonlar. Ularning biridagi nuqson ikkiinchisiga, albatta, ta’sir ko‘rsatadi. Zaif eshituvchi bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklar birlamchi hodisa sifatida kuzatiladi. Markaziy nerv sistemasidagi organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyati turg‘un buzilgan bo‘ladi va uning oqibatida bolaning nutqida ikkilamchi hodisa sifatida nutq nuqsonlari kuzatiladi. Bolaning bilish faoliyatidagi nuqsonlari bartaraf etilgani sari, nutqidagi kamchiliklar ham kamayib boradi va aksincha.

Yordamchi mehnat ta’limi maktabi bolalari bilish faoliyatining rivojlanish xususiyatlari oligofrenopsixologiya fanida mukammal o‘rganilgan. S.Aytmetovaning “Maxsus maktab bolalarining psixik rivojlanish xususiyatlari” nomli kitobida zaif eshituvchi bolalarning tafakkuri, idroki, xotirasi, diqqati, nutqi, tasavvuri va bilish faoliyatining boshqa tomonlari batafsil yoritib berilgan.

Muammoning psixologik asoslari D.N.Bogoyavlenskiy, L.S.Vigotskiy, A.Davidov, F.Talizina, D.Elkonin, S.Rubinshteyn, L.R.Luriya kabi va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘zining aniq ifodasini topgan. Ularning fikricha, aqliy rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, takomillashtirish mumkin. Zaif eshituvchi bolalarning bilish faoliyati o‘zgacha bo‘lsa-da, uning potensial imkoniyati baland. To‘g‘ri tashkil etilgan korreksion rivojlantiruvchi ta’lim-tarbiya jarayonida maxsus maktab bolalariga mustaqil hayotda zarur bo‘lgan hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish mumkin. Maxsus sharoitda va maxsus usullar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari orqali bilish faoliyatidagi kamchiliklari bartaraf etiladi, psixofiziologik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklari korreksiyalanadi. Zaif eshituvchi bolalarning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayotgan narsalarning, voqea-hodisalarning muhim tomonlarini ajratib kuzatish, bular o‘rasidagi eng oddiy sabab-natija bog‘lanishlarini fahmlab olish qobiliyatlari rivojlanmay qoladi. Zaif eshituvchi bolalarning tafakkuri, diqqati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatlari ham yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Savod o‘rgatishning dastlabki davridayoq bu bolałar tovush va harf o‘rtasidagi bog‘lanishlarning farqiga yaxshi bormay, harflarni eslab qolish, bo‘g‘inlab o‘qish, ongli, to‘g‘ri, tez o‘qish malakalarini o‘zlashtirishda qiynaladilar, juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida zaif eshituvchi bolalarning xulq-atvorida ham bir qator kamchilikar kuzatiladi. Qo‘zg‘alish va tormozlanish o‘rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat. sho‘x bo‘ladilar va aksincha, tormozlash jarayoni ustun turgan bolalarda esa passivlik, bo‘shanglik, beparvolik, hech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi va hokazo.

Zaif eshituvchi bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarini

vaziyatga qarab, adekvat o‘zgartira olmaydilar. Ularda o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo‘ladi.

O‘qish va yozuv buzilishlarining mexanizmi ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshashdir. Shuning uchun ularning oldini olish, bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlari metodikasi ham o‘xshash.

Yuqorida ko‘rsatilgan bilish faoliyatidagi bir qator kamchiliklariga qaramay, maxsus maktab bolalari bilan to‘g‘ri tashkil etilgan maxsus ta’lim-tarbiya ishlari natijasida ulami ongli, to‘g‘ri, ifodali o‘qishga, hayotda zarur bo‘lgan hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish yo‘li bilan mustaqil hayotga tayyorlash, kaşb-hunarga o‘rgatish borasida katta yutuqlarga erishish mumkin.

O‘qish murakkab malaka bo‘lib, uning shakllanish jarayonini metodist T.Yegorov uch bosqichga bo‘ladi:

l. Analitik bosqich. Bunda bolalar so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish ko‘nikmasini egallaydilar.

2. Sintetik bosqich. Bu bosqichda so‘zni sidirg‘asiga o‘qish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bunda bir qarashda bir necha so‘zni ko‘ra olish. uning ma’nosini anglash va to‘g‘i talaffuz etish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

3. Avtomatlashgan o‘qish. Bunda fahmlab o‘qish ko‘nikmasi shakllangan bo‘ladi. So‘zning birinchi qismini ko‘riboq, bola fahmlab, uning keyingi qismini matn mazmuniga ko‘ra tushunib olaveradi. Asar mazmunini tahlil etish ishlari o‘qish malakalarini takomillashtiradi. Bola uchun tanish bo‘lgan mazmundagi matnni ongli, tez, ifodali o‘qish ancha oson.

Ongli o‘qish anglab, tushunib o‘qish demakdir. Yordamchi ınaktabda ham ongli o‘qishga o‘rgatishda matnni o‘zlashtirishga tayyorlash, lug‘at ustidagi ishlar, dastlab matnni o‘qituvchi tomonidan namunali ifodali o‘qish, bolalarga matnni o‘qitish, qayta o‘qishdan so‘ng o‘qilgan parcha mazmunini tahlil etish, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijobiy va salbiy obrazlarni aniqlash, asar qahramonlarini ta’riflash kabi va boshqa boshlang‘ich maktabda ishlatiladigan usullar keng ishlatiladi. Biroq bu usullar yanada ham soddalashtiriladi, ish turlari kengaytiriladi, ko‘rgazmali qurollar ko‘proq ishlatiladi va h.k.

To‘g‘ri o‘qish – xatosiz o‘qishdir. Zaif eshituvchi bolalar o‘qish vaqtida harflarni tushirib. o‘rnini almashtirib, so‘z tuzilishini buzib, o‘qigan joyini yo‘qotib va boshqa shu kabi xatolarga yo‘l qo‘yib o‘qiydilar. Ushbu xatolar ongli o‘qishni o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, o‘qish – bu so‘zning tovush tuzilishini buzmay o‘qish demakdir, o‘qishga o‘rganish ishlari 1-3 sinflarda ko‘proq amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu davrda o‘quvchilar harflarni idrok etib, avval bo‘g‘inlab, so‘ngra sidirg‘asiga o‘qishga o‘rganadilar, o‘qishga o‘rgatish uchun matn ichidagi qiyin bo‘g‘in, so‘z, iboralarni oldindan o‘qishga odat qildirish uchun har kuni maxsus mashqlarni o‘tkazish talab etiladi. Mashqlarda bo‘g‘in va so‘zlarni to‘g‘ri idrok etish, o‘qishga o‘rgatish orqali ko‘rish va eshitish, nutqni harakatga keltiruvchi analizatorlar o‘rtasidagi bog‘lanish o‘rnatiladi, mustahkamlanadi. O‘xshash bo‘g‘in, so‘zlarni ajratish, farqlash, bo‘g‘in va so‘z obrazlarini xotirada saqlash, idrok etish va anglashlarni bir butun jarayonga aylantirish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun turli bo‘g‘in, so‘z, gap jadvallari ishlatiladi: paronim

so‘zlar jadvali (gul, kul, bosh, tosh, zina); a, o, u, i, o‘, e unlisi ishtirokidagi ochiq, yopiq bo‘g‘inlar; jadvaldagi ustunlarda bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, uch bo‘g‘inli va h.k. so‘zlar; o‘zakdosh so‘zlar jadvali; so‘zlarni bosqichma-bosqich o‘qitishga mo‘ljallangan jadval (o-to-sto-stol; u-stu-stul; a-ra-tra-tram-tramvay va h.k.) va shu kabilar.

Tez o‘qish – bu jonli nutq sura’tidagi anglash, talaffuzdan oldin yuradigan o‘qish. O‘qish tezligi ongli va ravon o‘qishni ta’minlaydi. O‘qish tezligini oshirish uchun mumkin qadar ko‘proq o‘qishga mashq qilish; bir matnni turli yo‘llar bilan o‘qitish, matn boshida, o‘rtasida, oxirida nima haqida yozilganligini aniqlay olish, ya’ni qayerda nima haqida gap ketayotganligini aniqlash hamda to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘qish tezligi bir daqiqada o‘qiladigan so‘zlar miqdori bilan belgilanadi. Davlat ta’lim standartlarida meyorda rivojlangan sog‘lom bolalar o‘qish tezligiga quyidagi talablar qo‘yilgan:

1-sinf bolalari yil oxirida bir daqiqada 20-25 so‘z, 2-sinf- 40-50 so‘z, 3-sinf- 65-70 so‘z, 4-sinf - 80-90 so‘zni o‘qishi lozim. Maxsus maktabda ushbu ko‘rsatkichlarga 9 yil mobaynida erishish mumkin.

Ifodali o‘qish — bu intonatsiyaning turli vositalari yordamida asar mazmuni va unda ifoda etilgan his-tuyg‘ularni tushunib o‘qish demakdir. Ifodali o‘qishda ma’lum tezlik, mantiqiy pauza, tinish belgilariga rioya qilgan holda o‘qish muhim. Buning uchun so‘zlarni aniq, ravon, talaffuz etib, asar mazmunini tushunib, ongli o‘qish, unda ifoda etilgan qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini, ruhiy kayfiyatlarini anglab o‘qish demakdir.

Ifodali o‘qishga o‘rgatish ish turlariga quyidagilami kiritish mumkin: to‘g‘ri nutqiy nafas olishni tarbiyalash; diksiyani ishlab chiqish; tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap, she’riy asar, tez aytishlar bilan artikulyatsion mashqlar o‘tkazish; xor bo‘lib o‘qish; ko‘rsatilgan ifodali o‘qish namunasiga taqlid etish; rollar bilan o‘qish; drammatizatsiya, sahnalashtirish usullaridan foydalanish; ayrim intonatsiya turlaridan ongli foydalana olishga o‘rgatish mashqlari; ovoz ustida ishlash va boshqalar.

ADABIYOTLAR:

1. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi. – Toshkent, 1984.
1. Kosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 1985.
2. Rahmanova V.S. Maxsus maktablar uchun ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish dasturi. – Toshkent, 2003.
3. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2005.
4. Rahmanova V.S. Ona tili o‘qitish maxsus uslubiyati. – Toshkent, 2003.